

**INGLIZ VA O'ZBEK ASARLARIDA “O'GAY ONA”  
OBRAZINING IJOBIY AKS ETTIRILISHI**

*O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti o'qituvchisi  
Nizomova Iroda Raxmon qizi*

**Annotatsiya:** Adabiyotda yozuvchilar tomonidan ko'p madh etilgan mavzulardan biri bu – Ona obrazi. Onalar haqida yozilgan nafaqat o'zbek, balki boshqa tillardagi barcha asarlarda onaning mehru shafqati, axloqi va uning tengsiz zot ekanligi haqida so'z yuritiladi. Ona farzand uchun eng bebaho boylikdir. Chunki ona farzandini mashaqqat bilan dunyoga keltirib, oq yuvib, oq taraydi va umrining so'ngiga qadar jonini fido qilishga tayyor bo'ladi. Shu sabali ham, onadan bo'lak yaqin do'st yo'q desak mubolag'a bo'lmaydi. Maqolamizda ham shunday “o'gay ona”lar borki o'z farzandidan ko'p suyib, mehr berib yetimlar boshini silaydigan onalar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** ona, o'gay ona, yetim, mehr, ijobiy va salbiy obraz;

Ona – hamisha farzandim deb yonib yashovchi farishta. O'z jonidan bir parchani yulib farzandiga baxsh etarkan, uni Allohning buyuk ne'mati deb biladi. Jonimning parchasi – bolamning tanasi dard ko'rmasin deya barcha dardlarga o'zni duchor qiluvchi, o'g'il yoki qizi biroz og'risa ham, atrofida girdikapalak bo'lib, kasaldan ko'ra ko'proq bezovta bo'lguvchidir. Bolasining tanasi og'rganini u his qilsa, uning butun qalbi bolam deya qaqshaydi. Chunki bir parcha etligidan tarbiyalagan, umrining mazmuniga aylantirgan farzandi o'z jonidan-da aziz. Har qanday insonning qalb ochgichi onasi, hali zabon chiqarmaganda ham tushunib allalab chiqqan mehridaryosidir. Bolasi beshikda yig'laganda ko'krak suti bilan ovutuvchi, bolalikda tizzasini qonab uning oldiga borganida kulchalar, shirinliklar bilan uni yupatuvchi ona emasmidi?! Jahli chiqqanda, asabiy yoki xafa holatlarda ham uning tizzasiga bosh qo'yib taskin topmaydimi?! Boshini qadoq qo'llari bilan silaganda barcha g'amlarni unutadi inson. Uning bag'riga bosh qo'ygandagina o'zini yana yosh boladek erkin his qila oladi. Shu sababli ham xalqimiz orasida “Bola ona uchun doim bola bo'lib qoladi” degan naqlni ko'p bora uchratishimiz mumkin. Buni quyidagi rivoyat orqali ham rostligiga amin bo'lishimiz mumkin:

Muso alayhissalom onalarini qabrga qo'yib, qabristondan chiqaverishlarida Alloh taolo shunday marhamat qiladi: “Ey Muso, o'zingizni ehtiyot qiling!” Bundan hayron bo'lgan Muso alayhissalom shunday deydilar: “Ey Alloh, Sen menga shu paytgacha bunday demagan eding. Nimaga aynan shu bugun o'zimni ehtiyot qilishimni aytyapsan?” Alloh taolo javob qiladi:

“Chunki, Siz har kuni uydan chiqishingiz bilan onangiz “Bolamni panohingda asra”, deb duo qilar edi. Mana shu duo sabab biz Sizni omonda saqlar edik. Endi Sizni bunday duo qilguvchi zot yo‘q!”

Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, muqaddas Tavrot kitobi nozil bo‘lgan, Alloh bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri suhbatlasha olgan Muso alayhissalomdek zot ham onalarining duolariga muhtoj ekanlar.

“O‘gay ona” nomini ilk marta eshitganda inson ko‘z o‘ngiga yetim farzandlarga mehr berish o‘rniga o‘gaylik qiladigan ona timsoli gavdalanadi. To‘g‘ri, hech bir inson o‘z onasidek mehr-muhabbat berib, o‘rnini bosolmaydi. Ammo shunday onalar ham borki, o‘zi dunyoga keltirmagan farzandni chin mehr bilan tarbiya qilib, kamolga yetkazadi. Buni hozirgi o‘zbek hikoyachiligining iste‘dodli vakili Normurod Norqobilov ijodiga mansub "Yangi ertak " hikoyasi orqali, hamda Hasan Manzurning “O‘ga ona” nomli hikoyalari orqali xalqimiz orasida haqiqiy, o‘z tug‘gan onasidanda ziyoda mehr bera oladigan, o‘z farzandidek bag‘riga olgan va hikoya davomida o‘gay farzandlar ham o‘z onasidek qabul qilgan holatlarni ko‘rishimiz mumkin. Ingliz adabiyotida esa Anne Renasinghening “The Stepmother” va “Pencil art story”ga mansub bo‘lgan “Kind stepmother” hikoyalari ham o‘ziga xosligi, mavzu xilma-xilligi, qahramonning ichki kechinmalari va ruhiyati, shuningdek asosiysi “o‘gay ona” obrazining ijobiy ma‘noda naqadar sabrli ona sifatida yoritilganligi bilan ajralib turadi. Asosan o‘zbek va ingliz ertaklari va asarlarida o‘gay ona salbiy obrazda: yovuz, qo‘pol, badjahl, ayyor, yolg‘onchi va zulmkor xarakterlari bilan tasvirlanadi, shu o‘rinda o‘zbek folklorida “Zumrad va Qimmat”, “Podachining qizi”, “Oppog‘oy” va ingliz ertaklaridan esa “Cindrella”, “Snow white”, “The rose-tree” va “The son and wicked stepmother” ertaklarini misol keltirishimiz mumkin. Tadqiqotimiz jarayonida shuni guvohi bo‘ldikki, o‘zbek va ingliz ertaklarida o‘gay ona obrazi ijobiy xarakterda kuzatilmadi, ammo o‘zbek va ingliz ertaklaridagi “o‘gay ona” qahramonining nafaqat xarakteri, balki tashqi ko‘rinishi tasvirida ham bir qancha tafovutlarni ko‘rishimiz mumkin,.

Shu o‘rinda O‘tkir Hoshimovning ona haqida bergan ushbu fikrlarini esga olish joizdir: “Ilgari bir haqiqatni bilardim. Ona uchun bolaning katta-kichigi bo‘lmaydi. Endi yana bir haqiqatni angladim. Bola uchun ham onaning katta-kichigi bo‘lmas ekan. Ona – ona ekan. Unga boshqa sifat kerak emas”. Shu so‘zlardan anglash mumkinki, haqiqiy ona uchun o‘z farzandi yoki uning o‘gay ekanining ahamiyati yo‘q. Muhimi u insonning yetimlarga bo‘lgan mehri, sof vijdoni, iymon-e‘tiqodining butunligida va Alloh rizosi uchun to‘g‘ri yo‘l tanlay ola bilishida. Bunday insonni Alloh hamisha qo‘llaydi, o‘z panohida asraydi, unga hidoyat yo‘lini ko‘rsatadi. Buni “Al-jome as-sahih” asarida ham ko‘rish mumkin. “Rasululloh sallalohu alayhi vasallam: “men va yetimning kafilini olgan odam ikkimiz jannatda yonma-yon yashaymiz”, – deb ko‘rsatkich va o‘rta barmoqlarini juft qilib ko‘rsatdilar”.

Taniqli turk yozuvchisi Ahmad Lutfiy Qozonchiningko'plab kitobxonlarning sevimli asariga aylanib ulgurgan "Ogay ona" nomli kitobida ham quyidagi jumlar har qanday inson qalbini larzaga solidi: "Ona tuqqan bolasiga jabr ko'rsatishi tabiiy, ammo o'gay bolasiga jabr ko'rsatishi JOHILLIKDIR."

Xulosa qilib aytganda, onalik maqomining qanchalik buyukligini, ona mehr-muhabbati dunyodagi barcha tuyg'ular ichida eng oliy tuyg'u ekanini ta'riflashga til o'ziz. Ta'bir joiz bo'lsa, insonning hayot falsafasi ona mehri bilan ochib beriladi. Shunday onalar borki, garchi o'gay bo'lsa-da, chin ma'nodagi mehribon, farzand uchun borini baxshida etuvchi fidokor, hamda oqila umr yo'ldosh, shuningdek, tuqqan onadan ham rahm-shafqatli bo'la olishlari mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. «Ijod olami» jurnali, 2017 yil, 1-son.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklapediyasi 2000-2005.y
3. Ahmad Lutfiy Qozonchi "Ogay ona" "Yangi asr avlodi" - 2018
4. O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari", "Sharq" nashriyoti Toshkent - 2005
5. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)